



**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI REKTORINING BUYRUG‘I**

2021 yil "25" 01

57-9 - sonli

Chirchiq shahri

**Xarid komissiyasi a‘zolarini
shakllantirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 9 apreldagi "Davlat xaridlari to‘g‘risida"gi O‘RQ-472-sonli Qonuni ijrosini ta‘minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishda ishtirokchilarning takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo‘yicha xolis baholash va tartibga solish hamda raqobatlashuv usullari orqali g‘olibni tanlash maqsadida doimiy faoliyat yurituvchi xarid komissiyasi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Xarid komissiyasi "Davlat xaridlari to‘g‘risida"gi Qonunning 19-moddasida nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishi belgilansin.

3. Tovar-moddiy zaxiralar xaridi bo‘yicha 1,0 (bir) mlrd so‘mdan ortiq summaga shartnomalar tuzilsa vazirlik mas‘ul xodimi komissiya tarkibiga kiritilishi nazarda tutilsin.

4. Universitet ehtiyoji uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridi to‘g‘risida mazkur xaridlarning talab va shartlari, takliflarni taqdim etish muddatlari hamda tartibi ko‘rsatilgan buyurtma (e‘lon)larni belgilangan tartibda maxsus axborot portaliga joylashtirish, elektron do‘kondan xaridlarni amalga oshirish bo‘yicha mas‘ul shaxs etib ta‘minot bo‘limi boshlig‘i A.H.Abdullaev tayinlansin.

5. Mazkur buyruq ijrosining nazorati moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor (B.Bobojonov) zimmasiga yuklatilsin.

Rektor

M.Boltabayev